

CHANG CHOLG'USI VA UNING ANSAMBLDAGI O'RNI

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani 10-sonli

Bolalar musiqa va san'at maktabi

"An'anaviy ijrochilik va xonandalik"

bo'limi o'qituvchisi

Hayitova Marjona Sherzod qizi

Annotatsiya: *Chang cholg'u ijrochiligi, uning diapozoni va ansamblda changing o'rni. Hududimizga XX asrning boshlarida kirib kelgani, Darvishali Changiy, changning juda qadimiy asboblari va undan kasalliklarni davolashda foydalanilganini va changni cholg'ularning Zuhrosi, ya'ni «kelinchagi», deb ta'riflagani haqida.*

Kalit so'zlar: *Chang, ansambl, diapozon. Darvishali Changiy, xalq cholg'ulari, an'anaviy cholg'ular.*

Chang torli urma cholg'ular guruhiga kiradi. Changda 75 ta sim bo'lib, undagi har uchta sim bitta nota hisoblanadi. Changning diapozoni kichik oktava sol dan uchinchi oktavada sol diyez ga qadar. Changni chalish uchun rezinka bilan qoplangan maxsus ingichka ikkita cho'plardan foydalaniladi. Hozirgi kunda chang cholg'usining ikki xil turi bo'lib, biri o'zbek xalq cholg'ulari uchun, ikkinchisi esa an'anaviy cholg'u ijrochilari uchun, chalishadigan chang. E'tibor berib qarasaq xalq cholg'u ijrochilari ijro qiladigan changda, cho'plari biroz qisqa, an'anaviy ijrochilarda esa cho'plar uzunroq bo'ladi. Xalq cholg'u changgida uning maxsus "pedal"i bo'ladi, u yordamida kuydagi dinamik belgilarni paydo qilsa bo'ladi. An'anaviy changda esa "pedal" umuman bo'lmaydi. Shuning uchun ham cho'plari uzunroq bo'ladi, kuydagi dinamikani esa, cho'pni qattiqroq va sekinroq urish bilan amalga oshiriladi. An'anaviy mumtoz musiqa ijrochiligida ilk qo'llanilgan changlarni, usta Zayniddin Ayxayev hamda usta Usmon Zufarovlar yaratishgan degan ma'lumotlar bor. Shu davrda ustoz sozanda Faxriddin Sodiqov changning diatonik holatini o'zgartirib, xromatik tuzilishga keltiradi. Chang cholg'usida milliy kuylar bilan bir qatorda, sharq xalqlari va yevropa asarlarini ijro etish mumkin bo'ladi. Chang - qadimiy musiqiy cholg'u hisoblansada, bizning hududimizga XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma'lumotlar bor. Oldinlari ijrochilik amaliyotida qo'llanilgan changning tovushqatori diatonik ladda bo'lgan. Changning notalari skripka kalitida yoziladi. Aytishlaricha XVII asrda yashab ijod qilgan musiqa olimi Darvishali Changiy changning juda qadimiy asboblari va undan kasalliklarni davolashda foydalanilganini yozgan ekan va qiziq gap shundaki o'zining musiqiy risolasida ham changni cholg'ularning Zuhrosi, ya'ni «kelinchagi», deb ta'riflaydi. Hozir chang qayta ishlanib, tovushqatori xromatik, ya'ni yarim tonlik qilingan. Ijrochining o'tirib ijro etishiga qulay bo'lishi uchun vintlarga o'rnatilgan uchta oyoqlari bor



Ansambl bu shunaqa narsaki, unda ijod qilayotgan inson, yonidagi ham ohanggi bilan, bir xil nafas olishi, u bilan birga his qila olishi kerak demakdir. Ansambl so'zi fransuzcha ensemble — so'zidan olingan bo'lib, birgalikda ma'nosini bildiradi. Ansamblda, hoh ashulachi bo'lsin, hoh cholg'uchi bo'lsin undagi har bir qatnashuvchining o'z o'rni va vazifasi bor. Shunday ekan, Ansambl joylashuviga qarasaq doim chang o'rtada joylashadi. Balki shuning uchundir Darvishali Changiy, changni “kelinchak” deb atagan bo'lsa ajab emas. Ansamblda sozlash jarayoni ham, changni soziga qarab, sozlanadi. Har bir cholg'u birin ketin, asta-sekinlik bilan sozlanib, kuy yoki ashulani chalishga tayyorlaniladi. Kuy chalinayotgan paytda har bir cholg'uning o'zining chiroyli bezaklari, shtirixlari bo'ladi. Changning ham o'zgacha bezaklari bor. Bulardan mashhurlari bu farshlag bilan pirrangdir.

Forshlag – (oldindan urish) asosiy tovushni oldindan yarim yoki bir ton oralig'idagi tovush yordamida yengil urib chalish. Forshlagning oddiy ko'rinishi .

Pirrang – chap va o'ng qo'l bilan birin-ketin chalinadigan to'rtta zarbning birikmasi. Ijro uslubi o'ng qo'ldan boshlanib chap qo'lda tugaydi, kuchli hissa oxirgi chap qo'lning zarbiga to'g'ri keladi.. Odatda, mazkur bezak an'anaviy ijrochilikdagi mavjud barcha cholg'ularda ham keng qo'llaniladi. Changda esa, o'ziga xos xususiyatli tomonini to'laroq namoyon etadi. Yani bezak sifatidagi xarakterni chang cholg'usida ochib berish, boshqa cholg'ularga nisbatan qulayroq va mosdir.

Har bir changchi ijro qilayotganida o'z cholg'usiga mehr berib chalsa, har bir bajarayotgan ishi yaxshi bo'ladi. Ansamblda chang asosan o'rta va avj qismini ijro qiladi. Changning go'zalliligini mana shunaqa joylarida ko'rishingiz mumkin. Haqiqattan ham chang cholg'usini ijro qilish oson deb bo'lmaydi. Ba'zibir hollarda changdagi ko'p simlari ko'zingizni toliqtiradi. Aytishadiku, “qiyinchilik bilan kelgan har bir ishni oxirida rohat bo'ladi” deb. Bu cholg'uga bir mehr bergan inson undan ayrilishi juda qiyin. Chunki bu cholg'uda siz bilmagan g'oyibona go'zalik bor. Buni faqatga his qila olishingiz kerak. Uning uchun siz chang cholg'usiga mehr bering azizlarim.